

**SHAXSIY HIMOYA VOSITALARI (ISH KIYIMLARI)GA PSIXOLOGIK
YONDASHGAN HOLDA ISHLAB CHIQRISH VA SANOAT
KORXONALARIDA NOXUSH VA BAXTSIZ HODISALARNI OLDINI OLISSHA
SAMARADORLIKKA ERISHISH.**

Muminov Otabek Shuxratovich.

*Birinchi Rezinotexnika Zavodi.MChJ.Yetakchi muhandis
muminov_kebato1990@mail.ru*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaxsiy himoya vositalari (ish kiyimlari)ga psixologik yondashgan holda ishlab chiqarish va sanoat korxonalarida noxush va baxtsiz hodisalarni oldini olishda samaradorlikka erishish usullari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *shaxsiy himoya vositalari, baxtsiz hodisa, kasb kasalligi, mehnat muhofazasi talablari, stress, charchash, psixologik ta'sir, favqulotda holatlar.*

Abstract: *This article describes the methods of achieving effectiveness in preventing unpleasant and accidents in production and industrial enterprises with a psychological approach to personal protective equipment (work clothes).*

Key words: *personal protective equipment, accident, occupational disease, labor protection requirements, stress, fatigue, psychological impact, emergency situations.*

Аннотация: *В данной статье описаны методы достижения эффективности предотвращения неприятных и несчастных случаев на производственных и промышленных предприятиях с помощью психологического подхода к средствам индивидуальной защиты (спецодежде).*

Ключевые слова: *средства индивидуальной защиты, несчастный случай, профессиональное заболевание, требования охраны труда, стресс, утомление, психологическое воздействие, чрезвычайные ситуации.*

KIRISH.

Har yili dunyoda ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisalar natijasida 860 mingga yaqin baxtsiz xodisalar ro'yu beradi. Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, tashkilotlar kasb kasalliklari va baxtsiz hodisalar uchun yiliga tahminan 2.8 trillion dollar sarflaydi.

Shuningdek, har yili dunyoda 2 mlndan ortiq odam ishdagi zararli va xavfli omillar tufayli vafot etadi. Ularning 350 nafari baxtsiz hodisalar qurboniga aylanmoqda, qolganlari kasb qasalliklari tufayi vafot etmoqda. Baxtsiz xodisalardan o'lim, dunyoda yurak qontomir va onkologik kasalliklardan keyin uchinchi o'rinda turadi. Bundan tashqari 313 million kishi ishlab chiqarish jarohatlari natijasida nogiron bo'lib qoldi. Hozirgi ish sharoitlari nafaqat xodimlarning sog'ligiga, balki umuman ularning hayot sifatiga ham ta'sir qiladi. So'ngi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dunyodagi 3.2 million ishchi o'zlarini ishonchsiz his qiladi va iqtisodiy bebarqarorlik sharoitida joylashgan bo'lsa, 77 foizi xavfli, vaqtincha yoki ish haqqi to'lanmaydigan ishlarda ishlaydi.

Biz korxonalarda kasbiy kasalliklarning va jarohatlanishni oldini olish, kamaytirish maqsadida harakatlar algoritmini ishlab chiqishimiz kerak. Bunga zamonaviy texnik va innovation ko'mak, yangi dasturiy texnologiyalar joriy qilish, hamda dam olish uchun

qulay sharaotlar yaratishimiz kerak.

МУНОКАМА

Hozirgi kunda ishlab chiqarish korxonalarining barchasida mehnat qilayotgan xodimlar



shaxsiy mahsus kiyim-bosh bilan ta'minlangan.

Tarmoqlar kesimida sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar:

- Sanoatda — 101 ta. Oqibatda 23 nafar xodim vafot etgan va 80 nafari og'ir tan jarohati olgan;

- Qurilishda — 82 ta. Oqibatda 31 nafar xodim vafot etgan va 51 nafari og'ir tan jarohati olgan;

Qishloq ho'jaligida — 18 ta. Oqibatda 12 nafar xodim vafot etgan va 15 nafari og'ir tan jarohati olgan.

Ushbu baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish jarayonida 4 014 ta aniqlangan kamchiliklar yuzasidan bajarilishi majburiy bo'lgan 566 ta yozma ko'rsatma berilgan.

Qonun buzilishi holatlariga yo'l qo'ygani uchun 403 nafar mansabdorga nisbatan 4,149 mlrd so'm miqdorida ma'muriy jarimalar qo'llanilgan. 63 ta holatda

inspektorlarning tegishli xulosalari asosida aybdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Respublika bo'yicha kasb kasalligi hisobida turgan bemorlar soni 2019 yil 4716 kishini, 2020 yilda esa 4759 kishini tashkil etgan. 2020 yilda kasb

kasalligi aniqlangan 43 nafar bemorning 40 nafari sanoatga to'g'ri kelgan. Fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, ish beruvchilarga mehnat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini qo'llanilishi yuzasidan jami 7 065 ta targ'ibot tadbirlari o'tkazildi. Shundan 1 371 ta ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilgan, 4 040 ta ish beruvchilar bilan joylarda seminarlar o'tkazildi, 1 683 marotaba ishonch telefon orqali tushuntirishlar berildi.

2020 yilda koronavirus pandemiyasiga qaramasdan ishlab chiqarish jarayonlarida baxtsiz hodisalar oshgan. Bu Davlat mehnat inspeksiyasining hisobotida aks etgan.

2020 yil davomida respublikada ushbu ko'rsatgich 607 tani (107 taga ko'paygan) tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda ishlab chiqarish bilan bog'liq baxtsiz hodisalar 500 ta bo'lgan.

Baxtsiz hodisalar oqibatida 693 nafar xodim jabrlangan. Shundan 201 nafar xodim halok bo'lgan, 457 nafari og'ir va 35 nafari yengil tan jarohati olgan.

Respublikada 2019 yil davomida ishlab chiqarish bilan bog‘liq holda maxsus tekshirilgan baxtsiz hodisalar soni 500 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yil davomida Respublikada ushbu ko‘rsatgich 107 taga ko‘payib 607 tani tashkil etdi.

2020 yil davomida sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar oqibatida 693 nafar xodimlar jabrlangan, shundan 201 nafar xodimlar halok bo‘lgan, 457 nafari og‘ir va 35 nafari yengil tan jarohati olgan.

Ushbu statistik kuzatishlar natijasida ishlab chiqarishning barcha sohalarida baxtsiz xodisa xulosalarining asosiy omil va sababi - xodimlarning o‘z ish vazifasi bo‘yicha mehnat muhofazasi talablariga va xujjatlariga amal qilmaslik, davriy yo‘riqlarning doimiy o‘z vaqtida va to‘liq o‘tkazilmasdan xujjatlashtirish holatlari, ishchi va rahbar xodimning ishga nisbatan ma’suliyatsizlik bilan yondashishi, ish vaqti va rejimining buzilishi, xodimlarda stress, charchash va boshqa shu kabi holatlar natijasidir. Insonning bilimlarni qabul qilish turlicha bo‘lib, ayrim shaxslarda kasb va qonun-qoidalar talablariga rioya qilish uchun ancha vaqt talab etiladi. Bu vaqt davomida yuzaga kelishi mumkin noxush va baxtsiz hodisalarni oldini olish maqsadida, qabul qilishning inson ongiga psixologik ta’siri yuqori samarali boshqa tomonlarini ham ishlatish choralarini ta’minlash zarur hisoblanadi.

Insonni miya yarim sharlarinig rivojlanganligiga qarab uning nazariy bilimlar, eshitish, xidlash, ko‘rish va teri orqali sezishidan kelib chiqib eslab qolishi turlicha bo‘ladi. Ko‘rish sezgisi orqali inson atrof-muhit holati orqali ta’sir qilishi mumkin omillarni miyaga tez yetkazganligi bois insonning asosiy ustun tuyg‘ularidan biri hisoblanadi. Bu tuyg‘u nafaqat insonning balki jamiki mavjudotning miyasiga signal yuboradi. Ammo faqat inson miya ongi psixologik ta’sir ko‘rsatib, tashqaridlagi xavfga nisbatan chora ko‘rishga undaydi.

Mazkur tuyru orqali inson psixologiyasiga ta’sir ko‘rsatib ishlab chiqarish korxonalarida favqulotda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan nohush va baxtsiz hodisalarni oldini olish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish bunday hodisalar yuzaga kelishini salmoqli darajada kamayishiga sabab bo‘ladi.

Buning uchun korxonada miqyosida xodimlar tomonidan doimiy ko‘zi orqali ko‘rib turadigan vositalardan foydalanish va ularda xavfni oldini olishga undovchi belgilarni biriktirish muhim sanaladi. Xodimning shaxsiy himoya vositasi bo‘lmish – ust kiyim-bosh bunda bizga yordam berishi mumkin bo‘lgan asosiy vosita sifatida qabul qilinadi. Chunki, hozirgi kunda ishlab chiqarish korxonalarining barchasida mehnat qilayotgan xodimlar shaxsiy mahsus kiyim-bosh bilan ta’minlangan. Ammo bir savol tug‘iladiki, “SHXV siga qanday xavfni oldini olishga undovchi belgilarni biriktirish mumkin?”

Shaxsiy ximoya vositasiga

Men o‘z vazifamni xavfsiz bajara olaman!

Men o‘z xavfsizligimga javob bera olaman!

Men o‘z xavfsizligimni ta’minlay olaman!

kabi yozuvlarni ko‘rinadigan qilib joylashtirish talab etiladi. Mazkur yozuvlar shaxsiy ximoya vositasiga belgilangan talab bo‘yicha biriktirilgach, SHHVni taqqan (kiygan) xodim tomonidan doimiy vizual e’tibor bo‘ladi. Natijada xodim miyasiga ishni to‘g‘ri va xavfsiz bajarishga nisbatan buyruq signali boradi. Bo‘yruq signal insonga ruhiy ta’sir etishi-unda, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulotda nohush holat hamda uning oqibatlari haqida tahlil qilishga undaydi va sergaklik, ma’suliyat va javobgarlik hissini

ruhan shakllantiradi. Hodimni har vaqt kiyimdagi yozuvga ko'zi tushishi ruhiy instinkt hosil qilib, bor-bora refleksga aylanadi. Shaxsiy xavfsizlik birinchi darajaga ko'tarilib, ishga ma'suliyat bilan yondashish odatiy holga aylanadi.

Hozirgi kunda innovatsiyaning ushbu yangi turini ishlab chiqarishda tadbqiq etish;

- ishlab chiqarishda mehnat bilan band bo'lgan xodimlar salomatligi, xavfsizligi va ishni xavfsiz olib borishni ta'minlashga;

- favqulotda holatlar sonini inson omili bo'yicha kamayishiga ishlab chiqarish ob'yektlari misolida kamayishiga;

- korxonaning iqtisodiyotini mehnat muhofazasi sarf harajatlari tomonlama moddiy tejashga;

- mehnat bilan band bo'lgan shaxslarni ishlab chiqarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarga nisbatan ilmiy munosabat bildirishga olib keladi.

Respublika miqyosidagi barcha turdagi xavfli ishlab chiqarish ob'yektlarida bu innovasion g'oyani amaliyotda sinash va tadbqiq etish bo'yicha ishlarni boshlash ishning samaradorlik darajasini erta tahlil qilish imkoniyatini beradi.



МЕН ЎЗ ХАВФСИЗЛИГИМНИ ТАЪМИНЛАЙ
ОЛАМАН!




MEN O‘Z VAZIFAMNI XAVFSIZ BAJARA OLAMAN!

Izlanish olib borish natijasida hozirgi kunda yuzaga kelayotgan noxush, baxtsiz xodisa va avariya, ishlab chiqarishda xizmat qilayotgan xodimlar tomonidan sodir etilayotgan baxtsiz xodisalarni 100 foiz deb baholaydigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkich 1-3 yillik kuzatishlar natijasida 30-40 foizga tushirishga erishiladi.

Xodimlarning ish vazifasini bajarish bo‘yicha olingan umumiy kuzatishlar natijalarida yuzaga kelgan qoidabuzarliklar samaradorligini tahlili

Kuzatuv tahrili	Korxonada miqyosida	1-yil	2-yil
Xodimlarning ish vazifasini bajarish bo‘yicha 3 yilgi xafialik yuzaga kelgan xatoliklar	38	20	6
	37	16	5
	33	10	3
	32	10	3
	32	11	2
Natija	172	67	19
Ikki yillik kuzatuv natijasi		86 marta	



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki shaxsiy himoya vositalarida psixolik shiorli yozuvlarining bo‘lishi va buni rahbariyat tomonidan tasdiqlangan holda ishlab chiqarishga tadbiq etilishi, asosiy 70 foizni tashkil etuvchi xodimlarda ham ish topshirig‘ini bajarishdan oldin, shaxsiy himoya vositasi orqali olayotgan ma’suliyat va majburiyat hissini anglash va bevosita va bilvosita boshliqqa ishni bajarish bo‘yicha ichki tartib qoidalar bo‘yicha talab va shartlarni bajarilishini ta’minlab berish so‘rovini berishga sabab bo‘ladi. Bu o‘z navbatida ish bo‘yicha topshiriqning xavfsiz bajarilishiga zamin yaratib, sodir etilishi mumkin bo‘lgan noxush va baxtsiz xodisalarning sonini kamayishiga olib keladi. Nazari baholasak bu rahbarda ham ishni to‘g‘ri talab bo‘yicha bajarilishini va muammoli holalar yuzaga kelmasligini ta’minlash chorasini oldindan ko‘rishga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGANADABIYOTLAR:

1. MEHNAT MUHOFAZASI MAXSUS KURSI. E.I. IBRAGIMOV, S. GAZINAZAROVA, O.R. YULDASHEV. Toshkent 2014.

2. MEHNAT MUHOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI, O.D.RAHIMOV, R.T.XO_JAQULOV, O.T.HASANOVA, O_.R.YO_LDOSHEV. «Davr nashriyoti» Toshkent – 2013.

3. MEHNATNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH. Bakieva I.A. IQTISODIYOT.2019.

4. MEHNATNI MUHOFAZA QILISH. Y.O. MANNONOV, K.G. MAVLONOV. Toshkent — «ILM ZIYO» — 2015.

5.<https://odam.uz/Qiziqarli/ranglar-psixologiyasi-rang-va-fe-l-atvor>

6.<https://www.gazeta.uz/uz/2021/02/04/incident/>